

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Abduraxmonov</b>	
Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish .....	199
<b>B.B.Umarov</b>	
Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi.....	203
<b>R.Mardonov</b>	
G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama .....	207
<b>X.O'.Samatov</b>	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi .....	210
<b>Z.A.Boboyeva</b>	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari.....	217
<b>G.U.Radjabova</b>	
Ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari .....	220
<b>N.N.Bobojonov</b>	
Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	226
<b>E.S.Yuldashyev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli .....	231
<b>N.V.Karimova</b>	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	236
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi. ....	241
<b>I.A.Maxmudova</b>	
Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida .....	247
<b>A.N.Qosimov</b>	
Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish .....	250
<b>F.Sharipova</b>	
Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish .....	255
<b>G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov</b>	
7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi .....	260
<b>Z.Hamrayeva</b>	
Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari.....	263
<b>U.Jabborov</b>	
11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari .....	269
<b>M.Kataeva</b>	
Ta'lim jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati .....	275
<b>O.Yadgarova</b>	
Shaxsni o'rganishda projektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari .....	279
<b>I.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish .....	283
<b>M.Babakulova, M.Radjabova</b>	
Interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish .....	288
<b>X.Tojiyev</b>	
Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari .....	292
<b>D.Buranova</b>	
Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida .....	300
<b>D.Yo'ldosheva</b>	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	303
<b>G.Abdullayeva</b>	
Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihati .....	308

**ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI**  
**ОПИСАНИЕ БУХАРЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ БАКРА НАРШАХИ**  
**DESCRIPTION OF BUKHARA IN THE WORK OF ABU BAKR NARSHAKHI**

**Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li**

– Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida tayanch doktoranti

**Annotasiya**

*Ushbu maqolada o'rta asrlarning VIII-XII asrlariga oid ma'lumot beruvchi manbalar ichida alohida o'ringa ega bo'lgan, Movarounnahr va Xurosonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi buxorolik tarixchi olim Abu Bakr Narshaxiy qalamiga mansub "Buxoro tarixi" asarida Buxoro tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar bayoni keltiriladi.*

**Аннотация**

*В данной статье «История Бухары» написана ученым-бухарским историком Абу Бакром Мухаммадом ибн Ан Наршахи, который занимает особое место среди источников информации о VIII-XII веках Средневековья и дает ценные сведения о социально-экономической, политической и духовной жизни Моваруннахра и Хорасана. В его работе представлены сведения, связанные с историей Бухары.*

**Abstract**

*In this article, "History of Bukhara" written by Bukhara historian scholar Abu Bakr Muhammad ibn An Narshahi, who has a special place among the sources of information about the 8th-12th centuries of the Middle Ages and provides valuable information about the socio-economic, political and spiritual life of Movarunnahr and Khorasan. In his work, information related to the history of Bukhara is presented.*

**Kalit so'zlar:** Narshaxiy, Buxoro tarixi, tarixiy manbalar, toponimika, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Movarounnahr.

**Ключевые слова:** Наршахи, история Бухары, исторические источники, топонимия, социально-экономическая жизнь, Мовароуннахр.

**Key words:** Narshahi, history of Bukhara, historical sources, toponymy, socio-economic life, Movarounnahr.

**KIRISH**

O'zbek xalqining ajdodlari tomonidan 2500-3000 yil muqaddam asos solingan Buxoro shahri nafaqat O'zbekiston yoxud Markaziy Osiyo mintaqasi, balki jahon tarixidagi eng ko'hna va qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Buxoro shahri o'rta asrlarda Buxoroi sharif - Sharofatli Buxoro deb e'zozlangan. Tarixiy Buxoro (Buxoro vohasi) hududida ko'hna va hamisha navqiron Buxoro bilan bo'ylashadigan ko'plab shaharlar, kentlar va tumanlar mavjud bo'lib, ular Buxoroni himoya qilib kelganlar.

Sharq madaniy yodgorliklarini saqlab kelgan xalqlarni aql muhandislari – donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql piri-tafakkur ustozlari-farosatli kishilar; aqli javohirshunos-yetuk, komil va so'zning yashirin sirlarini yaxshi tushunuvchi nozikta'b kishilarning idrokli kabi ma'naviy tarixiy xislatlarga ega bo'lgan tarixiy maskanlarimizdan biri qadim va doimo navqiron Buxoroga ham nisbatan ishlatilgan ibora deb hisoblash mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mavzuni yoritishdagi asosiy maqsadlardan biri Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomli asarida Buxoro shahri va uning atrofi tavsifi haqida keltirilgan tarixiy ma'lumotlarni qo'shimcha adabiyotlar asosida yoritishga bag'ishlanadi.

Buxoro - qadimiy va mo'tabar, avliyolar shahri bo'lib, u butun insoniyat madaniyati, ma'naviyati, ma'rifati va tarixida ulkan o'rin tutuvchi muqaddas maskandir. Ushbu esa maqola shahar tarixini yosh avlodlarga yana bir bor taqdim etishga, mavjud tarixiy faktlar va mu'alliflar ilmiy ma'lumotlarini to'ldirishga qaratilgan.

Mavzuni yoritishdagi asosiy manbalar: 1993-yil Sharq bayozi nashriyoti tomonidan chop etilgan Abu Bakr Muhammad Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi", shuningdek, 2011-yilda Sh.S.Kamoliddin tarjima, sharh va eslatmalari va Ye.G.Nekrasovanning arxeologik-topografik sharhlari bilan to'ldirilgan rus tilida nashr qilingan "Buxoro tarixi" asari, 2006-yil chop etilgan A.Sh.Jumayevning "Buxoro arxeologiyasi" o'quv-uslubiy qo'llanmasi, 2018-yil chiqqan

Sh.S.Kamoliddin, Z.A.Ilxamovlarning "Istochniki po srednevekovoy istorii Sredney Azii" va Halim To'rayevning 2020-yil chop etilgan "Buxoro tarixi" o'quv qo'llanmalari – kabi mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili, shuningdek, A.Muhammadjonov, E.Nekrasova, D.K.Mirzaahmedov, Sh.Kamoliddin, B.Ergashevlar maqolalari asosida yoritishga harakat qilingan.

Maqolani yoritishda qiyosiy tahlil, muammoviy xronologik, miqdoriy tahlil va ko'pgina manbashunoslik ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan kontent, ya'ni miqdor va mazmuniy solishtirish uslublaridan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'ldan darak beradi. Sharq madaniyati taraqqiyotiga, islom dinining ilmiy jihatdan talqin etilishi va o'rganilishida Buxoroning tutgan o'rni ahamiyati benihoya yuksak va qadrlidir. Shahar tarixi doimo o'zining jozibadorligi bilan ajralib turuvchi jihatlaridan biri islom madaniyati yodgorliklarining hozirgi davrda ham saqlanib kelinishi umuminsoniyat madaniy markazlaridan ekanligini tasdiqlab turuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Buxoro tarixini yoritib beruvchi asarlar orasida tarixiy manba darajasiga ega bo'lgan Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini e'tirof etish mumkin. Movarounnahrning Somoniylar hukmronligi davri tarixi haqida birinchilardan bo'lib, Abu Bakr Narshaxiy batafsil ma'lumot berib o'tadi. Abu Bakr Narshaxiy – Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo'lmish «Tarixi Buxoro» ("Buxoro tarixi", "Narshaxiy tarixi") deb shuhrat topgan nodir asarning muallifidir. U o'z asarini 943 – 944-yillarda arab tilida yozgan va uni shu yillarda taxtga o'tirgan Somoniylar davlati hukmdori Amiri Hamid, ya'ni Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoni (943 - 954)ga bag'ishlagan. "Buxoro tarixi" asarining o'zida ham, boshqa tarixiy manbalarda ham muallifning hayoti va faoliyatiga doir biror kengroq ma'lumot uchramaydi. Faqat XIII asr muallifi Sam'oniyning "Kitob ul-ansob" asarida uning to'la ismi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan (Narshax qishlog'idan) bo'lib, 286 hijriy (899 milodiy) yili tavallud topgan va 348 (959) yili vafot etganligi eslatiladi.

"Buxoro tarixi" ning asl nusxasi ya'ni Narshaxiy tomonidan yozilgan nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi 1128-yil farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy tomonidan qisqartirilib tarjima qilingan. Abu Nasr Ahmad Qubaviy asarni tarjima qilish davomida uni qisqartirish bilan birga IX asr mualliflaridan Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning "Tarixi Tabari", Abulhasan Abdurrahmon ibn Muhammad Nishopuriyning "Xazoin ul-ulum" hamda Abu Is'hoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliyning "Axbori Muqanna" nomli asarlaridagi ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Al-Qubaviyning o'zgartirishlaridan yarim asr o'tgach, mazkur forsiy tarjima yana qaytadan tahrirga uchragan, 1178-1179-yillar davomida Muhammad ibn Zufar ibn Umar asarni ikkinchi marta qisqartirib bayon etgan. Ammo asarni o'qir ekanmiz, biz unda mazkur 1178-yildan keyingi to 1220-yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida ham qisqa-qisqa ma'lumotlarni uchratamiz. Bu hol shuni ko'rsatadiki, Muhammad ibn Zufarning qisqartirishidan (ya'ni 1178-yili) keyin ham bir necha noma'lum kishilar ana shu forsiy tarjimani tahrir qilganlar. Ular asarni yana qisqartirganlar deyishga asos bo'lmasa-da, lekin qo'shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan ko'rinib turibdi.

Narshaxiyning asari keyingi davrlarda fransiyalik Ch.Shefer (1892 y.), rossiyalik N.Likoshin (1897 y), eronlik Mudarris Rizaviy (1936 y), buyuk britaniyalik (Kembridj), R.Frey (1954 y)lar tarjimalarni amalga oshirib uning asrlar o'tib tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshirishgan.

Narshaxiy o'z asarida Buxoroning IX-XII asrlar tarixiga oid ma'lumotlar berishi, tarjimonlarning kiritib borishgan qo'shimchalari hisobiga mazmunan kengaydi. Jami 36 bobdan iborat asarning quyidagi boblari bizga Buxoro shahri va u bilan bog'liq tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotlar beradi: Buxoroda qozilik qilgan kishilar haqida nomli **ikkinchi bob**da shaharda kechgan ijtimoiy hayotning ayrim jihatlarini va toponimik ma'lumotlar; Buxoroda podshoh bo'lgan xotin va undan keyin podshoh bo'lgan farzandlari nomi ostidagi **uchinchi bob**da shaharning siyosiy hayotdagi o'rni haqida; Buxoro va unga qo'shiladigan joylar nomli **to'rtinchi bob**da to'liqligicha topografik ma'lumotlarga boy bo'lib, Buxoro shahri va uning atrofidagi hududlar haqida; Buxoroda bo'lgan "Bayt ut-tiroj" to'qimachilik korxonasining bayoni nomli **beshinchi bob**da shahar tuzilishi, me'moriy inshootlar va iqtisodiy hayot haqida; "Bozori mox"ning bayoni nomli **oltinchi**

**bobi** shahardagi bozorlar va savdo-sotiq haqida; Buxoroning turli nomlari bayoni nomli **yettinchi bobi** Buxoro shahri topografiyasi va uning turli davrlarda qanday atalganligi xususida; Buxoro arkining bino etilishi haqida nomli **sakkizinchi bobida** Buxoro shahri markazida joylashgan hukmdorlar saroyining bino etilishi bayon qilingan; Podshohlarning Buxoroda bo'lgan manzillari bayoni nomli **to'qqizinchi bobi** Buxoro shahridagi darvozalar, Somoniy hukmdorlar va ular tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari xususida; Jo'yi mo'liyon bayoni va uning tavsifi nomli **o'ninchi bobi** Buxoro shahri markazida 4-5 km uzoqlikda joylashgan Somoniylar davrida obod bo'lgan Jo'yi mo'liyon va uning atrofdagi manzillar haqida ma'lumot beriladi; Buxoro va uning atrof yerlaridagi anhorlar nomli **o'n uchinchi bobi** Buxoro vohasi va unga tutash hududlardagi suv inshootlari, anhor va kanallar haqida; Buxoroning kishilar "Kampirak devor" deb ataydigan devori haqida va Buxoro shahrining devori nomli **o'n besh va o'n oltinchi boblari** Buxoroda tashqi dushmandan himoyalash va shaharni mustahkamlash uchun qurilgan darvozalarga bog'ishlangan; **o'n to'qqizinchi bob** o'z nomi bilan Qutayba ibn Muslimning hukmronligi va Buxoroning fath etilishi, Movaraunnahrning arab va ajam o'rtasida taqsim qilinishi haqida; **yigirma va yigirma birinchi boblari** Buxoroning fath etilishi va u yerda islom dinining tarqalishi va Masjidi Jome'ning bino etilishi deb nomlanib, Buxoro shahrida islom dinining kirib kelishi natijasida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar va yangi inshootlarning qurilishi haqida; **yigirma to'rtinchi bobdan yigirma to'qqizinchi bobgacha** Somoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi va boshqaruvining boshlanishi haqida; **o'ttizinchi bob** Amir Ismoil Somoniyga bag'ishlangan bo'lib, Buxoro shahrining poytaxtga aylinishi va Buxoroda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot haqida; **o'ttiz ikkinchi bobi** Nasr II ga bag'ishlanib, uning hukmronlik davri, Buxoroda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot beriladi. Asar boblarining orasida Buxoro tarixiga oid eng kerakli ma'lumotlarni shu boblardan olish mumkin.

Tarixiylik nuqtai nazaridan asarning "Buxoroning turli nomlari bayoni to'g'risidagi" bobi shahar tarixiga oid ma'lumotlarni beradi. Dastlab asar tarjimoni Muhammad ibn Nasr shaharning Numijkat deb atalgani, buning asosiy sababi o'rta asrlarda Buxoro yaqinidagi shahar bo'lib, keyinchalik ularning qo'shib ketganligi to'g'risida ma'lumot beriladi. Hattoki, Muqanna qo'zg'oloni bayonida ham Numijkat atamasi ishlatilganligi aytilgan. Asarda Numijkat qadimda Buxoroning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan shahri bo'lganligi va aholi uzoq vaqt shunday tarixiy atamani ishlatib kelgan.

Buxoroning arab istilosidan keyin musulmon dinini qabul qilishi va joriy etilgan arab imlosidagi manbalarda "Madinat us-sufriya" ya'ni "Mis shahri" deb atalishiga shaharda o'sha davr taraqqiyotining asosiy omillaridan biri temirchilikning – hunarmandchilikning rivojlanganligini tasdiqlasa, aynan bu soha mahsulotlariga bo'lgan doimiy talab asosida savdo-sotiq ham yuksalgan. Shuningdek, arab manbalarida shaharning "Madinat ut-tujor" – "Savdogarlar shahri" deb atalishi to'g'risidagi ma'lumotlar juda ko'plab tadqiqotlarda bildirilgan.

Narshaxiy o'z asarida Abu-l-Hasan Nishopuriyning Buxoroni Amudaryodan yuqorida bo'lsa-da, Xuroson shaharlari qatorida deb keltirganini kiritadi. Vardona, Afshina, Romtin, Varaxsha, Baykand va Farab kabi hududlar Buxoro atrofida joylashganligini yozib qoldiradi. Tarixchi fikriga tayanib, Buxoro shahrining hisor bilan shahriston o'rtasida masjid bo'lganligini, uning atrofida hunarmandchilik markazlari, bozorlarning bo'lganligini bilib olishimiz mumkin.

Buxoro hisorning g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb atalib, qadim johiliyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo'lganligi, faqatgina Nasr II davrga kelib, mahkamalar uchun maxsus saroy Registon qurilganini ham "Buxoro tarixi" asarining IX bobida keltirib o'tadi. Shuningdek, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turuvchi 12 anhor nomi ham keltirib o'tilgan.

1	Karmina	7	Baykonrud
2	Shopurkom	8	Favrozi Ulyo
3	Harqonot ul-Ulyo	9	Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymus
4	Harqonrud	10	Arvon
5	Ovxatfar	11	Kayfur
6	Sojman	12	Rudi Zar

Narshaxiy Buxoroning shahristoning yettita darvozasi nomlarini sanab o'tgan:

1. Darvozayi Bozor yoki Bozor darvozasi
2. Darvozayi Aloda
3. Baniy Sa'd darvozasi
4. Baniy Asad oldingi Muxra darvozasi
5. Kandiz darvozasi
6. Haqrah darvozasi
7. Darvozayi nav ya'ni Yangi darvoza

Buxoro arki va uning qurilishi haqidagi ma'lumotlar ham aynan Narshaxiy asarida batafsil keltirilganligini ko'rishimiz mumkin. Arab muarrixlari asarlaridagi kabi "Buxoro tarixi" asarida ham arkda ikkita darvoza bo'lganligi qayd qiladi. G'arbiy darvoza, ya'ni registon darvozasi, Maqdisiy qoldirgan ma'lumotda "Bob as-saxl" (Qum darvoza) deyilgan. XII asrdan boshlab esa bu darvoza "Darvozai alaf-furushon" va keyinchalik "Darvozai arki-oliy" deb atalgan. Bizgacha saqlanmagan sharqiy darvoza –"Bob al-jome'" (Jome' darvoza) deb keltirilgan bo'lib, Narshaxiy asarida "Somonfurushlar darvozasi" yoki "G'uriyon" deb yuritiladi. E'tiborlisi, Narshaxiy asarida o'lkamizdagi birinchi jome' masjidi ham arkda Qutayba ibn Muslim davrida qurilganligi bayon qilinadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro shahri tarixiy topografiya masalalari barcha davrlarda ham olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. Buxoro tarixiy topografiyasini birinchilardan bo'lib o'rgangan shaxs o'rta asr tarixchisi Muhammad Narshaxiydir. Uning "Buxoro tarixi" asari tarixiy topografiya bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadqiqotchilar uchun asosiy manbadir. Nafaqat arab geograflari va olimlari, balki zamonaviy tadqiqotlar doirasida ham o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi hamda topografiyasi, hukmdorlarning Buxoro shahrida bo'lgan manzillari, durdan va kumush tangalar zarb qilinishi, arablarning bostirib kirishi, Somoniylar boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy ahvol haqida yozishda uning kitobidan foydalanishgan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро Тарихи. – Т.: Шарқ баёзи, 1993. (Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahi. History of Bukhara. - T.: Sharq Bayozi, 1993.)
2. Мухаммаджонов А.Р. Бухоро шаҳри-2500 ёшда. –Т.: "Фан" нашриёти, 1998. –Б.72 (Muhammadjanov A.R. The city of Bukhara is 2500 years old. -T.: "Fan" publishing house, 1998. -B.72)
3. Некрасова Е. Г. О нескольких старых планах Бухары. В сб. Из истории культурного наследия Бухары. Вып.10. Бухара. 2006. (Nekrasova E. G. About several old plans of Bukhara. In Sat. From the history of the cultural heritage of Bukhara. Issue 10. Bukhara. 2006.)
4. Жумаев А.Ш. Бухоро археологияси. Ўқув-услубий қўлланма. 2006. (Jumaev A.Sh. Archeology of Bukhara. Instructional manual. 2006.)
5. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа'фар ан-Наршахи. Та'рих-и Бухара. История Бухары. Перевод, комментарии и примечания Ш. С. Камолитдина. Археолого-топографический комментарий Е. Г. Некрасовой. — Ташкент: SMIA-SIA, 2011. 600 с. (Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshahi. Ta'rih-i Bukhara. History of Bukhara. Translation, comments and notes by Sh. S. Kamoliddin. Archaeological and Topographic Committee Mention of E. G. Nekrasova. - Tashkent: SMIA-SIA, 2011. 600 p.)
6. Камолитдин Ш.С., Илхамов З.А. Источники по средневековой истории средней Азии. Учебно-методическое пособие. Т.: 2018. (Sh.S. Kamoliddin, Z.A. Ilkhamov. Sources on the medieval history of Central Asia. Teaching aid. T.: 2018.)
7. To'rayev H. Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. –Buxoro. "Durdona" nashriyoti. 2020. (Torayev H. History of Bukhara. Study guide. - Bukhara. "Durdona" publishing house. 2020.)